



INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA EKOLOGIK TARBIYA IJTIMOYIY-PEDAGOGIK HODISA SIFATIDA

Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati,

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19021339>

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida ekologik tarbiya ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati, uning kognitiv, aksiologik, faoliyat va ijtimoiy komponentlari ilmiy asosda yoritilib, mazkur komponentlarning o'zaro integratsiyasi hamda uzviyligi ochib beriladi. Ekologik tarbiya jarayonining shaxs ekologik ongini shakllantirishdagi o'rni, barqaror rivojlanish g'oyalari bilan uzviy bog'liqligi hamda oila, maktab va jamoatchilik kabi ijtimoiy institutlar orqali amalga oshirilish mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, ijtimoiy-pedagogik hodisa, barqaror rivojlanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ekologik faoliyat.

Аннотация. В данной статье экологическое воспитание в условиях инклюзивного образования рассматривается как социально-педагогическое явление с теоретической и методологической точек зрения. Раскрывается сущность экологического воспитания, а также научно обосновываются его когнитивный, аксиологический, деятельностный и социальный компоненты, их взаимная интеграция и взаимосвязь. Обосновывается роль процесса экологического воспитания в формировании экологического сознания личности, его неразрывная связь с идеями устойчивого развития, а также механизмы реализации через такие социальные институты, как семья, школа и общественность.

Ключевые слова: Экологическое воспитание, экологическая культура, экологическое сознание, социально-педагогическое явление, устойчивое развитие, личностно-ориентированное обучение, экологическая деятельность.

Abstract. This article analyzes environmental education in the context of inclusive education as a socio-pedagogical phenomenon from theoretical and methodological perspectives. The essence of environmental education is revealed, and its cognitive, axiological, activity-based, and social components are scientifically substantiated, along with their integration and interconnection. The study also justifies the role of environmental education in shaping an individual's environmental consciousness, its close relationship with the ideas of sustainable development, and the mechanisms of its implementation through social institutions such as family, school, and the community.

Keywords: Environmental education, environmental culture, environmental awareness, socio-pedagogical phenomenon, sustainable development, learner-centered education, environmental activity.

Kirish. Tarbiya jarayoni bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan bir qator yo'nalishlarni o'z ichiga oladi va ular o'rtasida izchil bog'liqlikni ta'minlash orqali barcha yo'nalishlarni yaxlit bir tarbiya mexanizmiga aylantirish mumkin. Inklyuziv ta'lim sharoitida mazkur jarayon har bir bolaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilib, tarbiyaviy ta'sirning differensial va adaptiv modelini talab etadi.



Ekologik tarbiya tarbiyaviy jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, inklyuziv ta‘lim sharoitida bolaning atrof-muhitga ijobiy munosabatini shakllantirish, tabiat elementlarining inson hayotidagi o‘rnini ongli ravishda anglashi hamda olam manzaralari haqida keng va yorqin tasavvurga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu orqali o‘quvchilarda fanlararo integratsiyani anglash, real tasavvurlarni boyitish, o‘quv-bilish faolligini oshirish kabi didaktik natijalarga erishiladi. Bunda ko‘rgazmalilik, multisensor yondashuv, hamkorlikda o‘qitish va individual qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari muhim metodik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish inklyuziv ta‘lim sharoitida barcha o‘quvchilarning, jumladan, alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bolalarning ham ekologik qadriyatlarni o‘zlashtirishini ta‘minlashga qaratiladi. Zero, ekologik ong va madaniyat insoniyatni biologik yashab qolish asosini izdan chiqaruvchi global ekologik inqiroz va ofatlardan xoli qilishning muhim sharti hisoblanadi. Inklyuziv ta‘lim muhiti esa ushbu jarayonda har bir shaxsning ekologik mas‘uliyatini rivojlantirish, ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash hamda barqaror rivojlanish g‘oyalarini ongli ravishda qabul qilishga pedagogik sharoit yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Ekologik muammolarni ekologik tarbiyani takomillashtirish orqali hal etish masalalari o‘zbek olimlari Sh.Avezov, N.Ashurova, I.X. Ayubova, N.Bozorova kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Xususan, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga ekologik tarbiya berishning nazariy-metodik asoslari mazkur ishlarda tahlil qilingan. Ushbu yondashuvlar inklyuziv ta‘lim sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki ekologik tarbiya barcha o‘quvchilar, jumladan, alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun ham teng pedagogik imkoniyatlarni yaratishni taqozo etadi.

Tabiat hodisalarini o‘rganish, tabiiy o‘zgarishlarning inson hayotiga ta’siri hamda ijtimoiy turmushda tabiat omilining o‘rnini tadqiq etish borasida yurtimiz mutafakkirlari – Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalar salmoqli ilmiy meros qoldirganlar. Ularning asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik g‘oyasi ilgari surilib, ekologik tafakkurning falsafiy ildizlari shakllantirilgan.

Ekologik tarbiya tushunchasi pedagogika, sotsiologiya, falsafa va ekologiya fanlari kesishgan nuqtada vujudga kelgan kompleks ijtimoiy-pedagogik kategoriya hisoblanadi. O‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy tarbiyani ijtimoiy mas‘uliyat bilan bog‘lab, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot masalasidir” deya ta’kidlaydi. Mazkur g‘oya ekologik tarbiyaning ham jamiyat barqarorligi va istiqboli bilan chambarchas bog‘liqligini anglatadi.

Rus olimi Nikita Moiseev ekologik madaniyatni “insonning tabiat bilan uyg‘un yashash kompetensiyasi” sifatida talqin qiladi va ekologik ongni insoniyat kelajak taraqqiyotini belgilovchi omil sifatida baholaydi. Ijtimoiy pedagogika nuqtayi nazaridan



Vasily Slastenin tarbiyani “ijtimoiy tajribani shaxs ongiga singdirish jarayoni” deb ta’riflaydi. Shu asosda ekologik tarbiya – ekologik tajriba, qadriyat va me’yorlarni shaxs ongiga integratsiya qilish mexanizmi sifatida namoyon bo’ladi. A. N. Ilina esa ekologik tarbiyani shaxsning jamiyat tomonidan e’tirof etilgan ekologik madaniyatni egallash jarayoni sifatida izohlaydi. Ilmiy manbalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni imkon qadar erta yoshdan boshlanishi zarurligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim sharoitida bu jarayon differensial yondashuv, adaptiv metodlar va multisensor pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi muhimdir. Chunki inson hayotining dastlabki bosqichlarida shakllangan ekologik tasavvurlar keyingi ijtimoiy xulq-atvorning poydevorini tashkil etadi.

Amaliyotda bolalik davrida ekologik tarbiya ko‘pincha stixiyaviy, ya’ni tizimsiz tarzda amalga oshiriladi. Bunday holatda izchillik, uzviylik va yaxlitlik kabi pedagogik tamoyillar to‘laqonli ta’minlanmaydi. Shu bois ekologik tarbiyani ilmiy asoslangan, maqsadli va tizimli ravishda tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Bu ayniqsa inklyuziv ta’lim muhitida muhim bo‘lib, unda har bir bolaning individual rivojlanish trayektoriyasi hisobga olinishi lozim. Ekologik tarbiyaning eng samarali bosqichi boshlang‘ich ta’lim davriga to‘g‘ri keladi. Aynan shu davrda bolada tabiatga ongli munosabat, mas’uliyat hissi va ekologik qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Demak, ekologik tarbiya – bu jamiyat tomonidan e’tirof etilgan madaniy-me’yoriy tajribani shaxs ongiga singdirish orqali ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi, uzviy, tizimli va maqsadli pedagogik jarayon bo‘lib, inklyuziv ta’lim sharoitida u tenglik, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan boyitiladi.

Tahlillar va natijalar. Ekologik tarbiyani uch mustaqil tashkil qiluvchi yo‘nalishlarga mumkin: 1. Ekologik targ‘ibot yo‘nalishi; 2. Ekologik ta’lim yo‘nalishi; 3. Ekologik tarbiya yo‘nalishi. Ular keng ma’noda uzluksiz ekologik tarbiya jarayoning ma’lum bosqichi hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishlar keng ma’noda uzluksiz ekologik tarbiya jarayonining muayyan bosqichlari hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim sharoitida esa ushbu yo‘nalishlar barcha o‘quvchilar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun teng imkoniyatlar asosida tashkil etilishi zarur. Ekologik tarbiyasini tashkil etishning quyidagi aspektlari muhim tarbiya mexanizmlari sifatida muhimlik kasb etadi:

-bolada oilaviy tarbiya va olam manzaralariga oid bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;

-atrof muhit komponentlari, tabiat vakillari bilan bevosita tanishish asnosida bolada hissiy-emotsional axloqiy-ekologik qarashlarni shakllantirish va davomli rivojlantirish;

-lokal ekologik muammolar, mahalliy ahamiyatga bo‘lgan ekologik omillarni bartaraf etishga oid boshlang‘ich ekologik bilimlarni shakllantirish orqali bolada ekologik madaniyatning dastlabki komponentlarini shakllantirish;



-darsdan tashqari vaqtlarda tabiat ob'ektlariga, tarixiy obidalarga o'lkashunoslik ekskursiyalari uyushtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchisining tabiat va atrof muhit bilan bevosita muloqotga kirishishi uchun sharoit yaratish;

-xalq pedagogikasi, oilaviy pedagogika vositalari orqali bola shaxsining shakllanishida tabiat va atrof muhitga ijobiy munosabatning ustivorligiga erishish;

-boshlang'ich ta'lim mazmunini hosil qiluvchi o'quv fanlari mundarijasini ekologik va atrof-muhit muhofazasiga oid mavzular bilan boyitish;

-tabiatshunoslik mavzulariga bag'ishlangan sinfdan tashqari mashg'ulotlar va tarbiyaviy soatlar mundarijasini ishlab chiqishda atrof muhitga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan mavzularning ustivorligini ta'minlash[4, 57-59b].

Inklyuziv ta'lim sharoitida mazkur mexanizmlar differensial yondashuv, adaptiv metodlar va multisensor pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi lozim. Bu esa har bir o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini inobatga olgan holda ekologik ongni shakllantirish imkonini beradi. Ekologik tarbiya ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida murakkab va ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, u shaxsning ekologik ongini, qadriyatlarini hamda amaliy xulq-atvorini shakllantirish jarayonini o'z ichiga oladi. Mazkur jarayon, avvalo, kognitiv komponent orqali namoyon bo'ladi. Kognitiv jihat ekologik bilimlar, tushunchalar va ilmiy tasavvurlar tizimini o'zlashtirishni anglatadi. Bu bosqichda o'quvchilar ekologik qonuniyatlarni, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglaydi, ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini ilmiy asosda tushunadi. Bilimning mavjudligi ekologik madaniyatning dastlabki poydevori hisoblanadi.

Biroq ekologik tarbiya faqat bilim bilan cheklanmaydi. U aksiologik komponent orqali davom etadi. Aksiologik jihat ekologik qadriyatlar, e'tiqod va munosabatlarning shakllanishini ifodalaydi. Shaxs tabiatni shunchaki resurs emas, balki ijtimoiy va umuminsoniy bo'lik sifatida qabul qila boshlaydi. Tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ekologik mas'uliyatni his etish va barqaror rivojlanish g'oyalarini qo'llab-quvvatlash aynan shu bosqichda shakllanadi. Demak, ekologik tarbiya jarayonida bilim qadriyatga, qadriyat esa ichki e'tiqodga aylanadi.

Ekologik tarbiyaning uchinchi tarkibiy qismi – faoliyat komponentidir. Bu bosqichda ekologik ong amaliy harakatga ko'chadi. Chiqindilarni saralash, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ko'kalamzorlashtirish tadbirlarida ishtirok etish kabi faoliyatlar ekologik xulq-atvorning real ko'rinishidir. Aynan amaliy faoliyat orqali shaxs ekologik mas'uliyatni kundalik hayotiga singdiradi va barqaror turmush tarzini shakllantiradi. Shunday qilib, ekologik tarbiya nazariy tushunchadan ijtimoiy amaliyotga aylanish jarayonini o'zida mujassam etadi.

Mazkur jarayonning to'rtinchi muhim jihati – ijtimoiy komponentdir. Ekologik madaniyat jamiyatdagi ijtimoiy institutlar orqali uzatiladi va mustahkamlanadi. Oila, maktab, ommaviy axborot vositalari hamda jamoatchilik tashkilotlari ekologik qadriyatlarni



shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shaxs ijtimoiy muhit orqali ekologik me'yor va talablarni o'zlashtiradi. Shu bois ekologik tarbiya individual jarayon emas, balki ijtimoiylashuvning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya samaradorligi bir qator pedagogik shartlarga bog'liq. Eng avvalo, integrativ yondashuv zarur bo'lib, ekologik bilimlar alohida fan doirasida emas, balki barcha fanlar mazmuniga singdirilishi lozim. Fanlararo bog'liqlik ekologik muammolarni kompleks anglash imkonini beradi. Ijtimoiy hamkorlik esa maktab, oila va jamoatchilik o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar esa o'quvchilarning individual qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olib, ekologik ongni chuqurroq shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ekologik loyihaviy faoliyatda ishtirok etgan o'quvchilarda ekologik ong ko'rsatkichi sezilarli darajada, ya'ni 35–40 foiz yuqori shakllanganligi aniqlangan. Bu esa faoliyatga yo'naltirilgan metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Ekologik tarbiya ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida jamiyatning ijtimoiy buyurtmasiga javob beradi. U davlat siyosati bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi hamda shaxs va jamiyat o'rtasidagi ekologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ekologik tarbiya jamiyat barqarorligining pedagogik omili sifatida baholanadi.

Xulosa. Ekologik tarbiya — shaxsning ekologik ongini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlash va barqaror rivojlanish g'oyalarini ta'lim tizimi orqali hayotga tatbiq etuvchi kompleks pedagogik jarayondir. Inklyuziv ta'lim sharoitida esa u teng imkoniyatlar, pedagogik adaptatsiya va ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshiriladigan strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik tarbiya zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u shaxs va jamiyat o'rtasidagi ekologik uyg'unlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бобылев Л.Д, Бобылева О.Д. Экологическое воспитание младших школьников. Начальная школа. – 2003. - № 5. – С.64-75.
2. Кириллова З.Л. Экологическое образование и воспитание школьников в процессе изучения природы / З.Л. Кириллова// Начальная школа. – 1989. – № 5. –С.25-27.
3. Цветкова И.В. Теоретические и методические основы экологического воспитания младших школьников во внеурочное время, автореферат дисс. кан.пед. наук. Москва-1999, С.-7.
4. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. –Qarshi: Nasaf, 2003.
5. А.Ю. Винокуров. Актуальные вопросы прокурорского надзора и обеспечения законности в сфере экологии. М.2008.с-218.